


Press_tur

Press_tur



Muzrabot tumanidagi 51-umumta'lim maktabida hamda maktabning qo'shimcha binosida tashkil etilgan IT markazda "Muzrabot tuamnida ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanishlar, erishilgan yutuqlar" mavzusida Press tur tashkil etildi.

Tuman hokimi Abdurashid Ismailov, tuman Maktabgacha va maktab ta'limi rahbari S.Hamrayev, ilg'or pedagoglar, jurnalistlar, ijtimoiy tarmoq faollari, ta'lim muassasalari

rahbarlari ishtirok etgan tadbirda erishilgan yutuqlar sarhisob qilindi, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Tuman hokimi A.Ismailov ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ustozlarning jamiyatdagi o'rni, qadr-qimmatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlar mohiyatiga alohida e'tibor qaratib, ilm o'rgatish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ulug' fazilat ekanini ta'kidladi.

